

**BOSHLANG`ICH TA`LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA****Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 9-umumiy o'rta ta'lif maktabi****boshlang'ich sinf o'qituvchisi****Nosirova Nilufarxon**

**Annotatsiya:** ushbu maqola bugungi kunda ta'lif sohasidagi eng muhim masala hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavzusida bo'lib, maqola barcha ta'lif muassasasi boshlang'ich ta'lif o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lif, ta'lif-tarbiya, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash, axborot texnologiyalar

Annotation: this article is on the topic of modern pedagogical technologies, which today is considered to be the most important issue in the field of education, the article is intended for all teachers of primary education in an educational institution.

Key words: modern education, education, pedagogical technology.

Аннотация: данная статья посвящена современным педагогическим технологиям, которые на сегодняшний день считаются наиболее актуальными в сфере образования, и предназначена для учителей начального образования всех образовательных учреждений.

Ключевые вопросы: современное образование, воспитание, педагогические технологии.

Yurtbosimiz 2023- yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili" deb e'lon qildi. Bu esa biz pedagoglarni yanada g'ayrat bilan ishlashimizni talab etadi. O'zbekiston o'z kelajagi uchun befarq emas. Mamlakatimizda yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish, kasbga o'rgatish, ularni aqliy va ma'nnaviy tomondan kamol toptirish asosiy vazifalardan biridir. «Ta'lif to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda ta'lifning mazmuni va

vositalarini yangidan ishlab chiqishni hayotning o`zi talab qilmoqda. Bu omil ta`lim jarayonini tarkibiy qismlarini yangicha tartibda namoyon bo`lishini talab etadi. Ana shu tashkiliy pedagogik jarayonda ta`lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta`lim metodlarining paydo bo`lishi, ta`lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa, ta`limni tashkil etishda o`qituvchi mahoratining noan`anaviy shakllari keng ko`lamda joriy etilishi kuzatilmoqda. Ushbu o`zgarishlarning ma`lum qismi mavjud didaktik yondashuvlarning tarkibi sifatida chiqqan bo`lsa, yana bir qismi dunyodagi ta`lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo`ladi. Ilg`or pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta`lim sohasiga kirib kelishi alohida e`tibor qaratadigan yo`nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur. Ta`lim tizimini qayta qurish hozirgi zamon bosqichida rivojlangan davlatlar darajasida O`zbekistonning ilg`or ilmiy texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan rivoj topishini ta`minlashga loyiq yuksak ma`naviy-madaniy va axloqiy sifatlarga ega chuqur bilimli, iqtidorli, talabchan va tashkilotchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Shu bois respublikamizda ta`lim tizimida qator islohotlar olib borilmoqda. Ta`lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar kirib kelmoqda. Endilikda ta`lim jarayonida o`quvchilarni zeriktirib qo`ymaydigan, fikrlashga, mustaqil ishlashga yo`naltirgan har xil metodlardan va o`qitish vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta`limda taxsil oluvchilarga ma`lum bilimlar tizimini yetkazish, ularni faqat eslab qolishning o`zi bugungi kunda yetarli bo`lmay qoldi. Ta`limda bilimga qiziqtirish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini shakllantirish, ishonch hosil qilishga odatlantirish, hozirgi kunning va kealjakning talabidir. O`quvchi mustaqil bilim olish ko`nikmasiga ega bo`lsa, mustaqil o`qishga intilsa, u rivojlanadi. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta`lim tizimini mustahkamlash borasida muayyan tajribalar to`plangan bo`lsada, bu borada ijtimoiy yechimga ega bo`lgan kamchilik va muammolar mavjudligi aniqlandi. Zamonaviy ta`limni tashkil etishda nafaqat yangi pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari xizmatlari, teatr, kinodan foydalanish maqsadga muvofikdir. Zamonaviy

pedagogik texnologiyada kutilgan natijaga erishish uchun faqat o`qituvchi emas, o`quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko`zda tutilgan maqsad amalga oshirishi va natijali bo`lishini rejalashni o`qituvchi o`z oldiga vazifa qilib qo`yadi. Boshlang`ich ta`lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiya elementlarini qo`llash muammosini nazariy va metodik jihatdan tahlil etib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o`z mazmun va mohiyatiga ko`ra qanday qilib, qaysi usullar bilan kafolatlangan natijaga erishish mumkin degan savolga javob beradi.
2. Har bir fan o`qituvchisi zamon talablaridan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalarning mazmun va mohiyati uning o`ziga xos xususiyatlarini o`rgangan holda o`z pedagogik mahoratini oshirishi lozim.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyaga ko`ra o`qituvchi har bir dars uchun o`z pedagogik maqsadlarini aniq belgilab olish, o`quv vazifalarini to`g`ri qo`yishi, dars jarayonini diolog shaklida tashkil etishi lozim.
4. O`qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiya asosida dars uchun reja tuzayotganda, o`quvchilarning yoshi, individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o`quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqishi zarur.
5. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning boshlang`ich sinf darslarida qo`llanilishi o`quvchilarning ijobiyligi qobiliyatini yanada rivojlantirishga imkon yaratadi. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilarning aqliy qobiliyatlarini hisobga olgan holda reproduktiv va produktiv xarakterdagi nazorat topshiriqlarini ishlab chiqadi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayonini tubdan isloh etilayotgani bilish subyektiga aylanayotganini taqozo etadi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Tal`at G`afforova – Boshlang`ich ta`limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: 2011.
2. Ta`lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi o`quv-uslubiy majmua. - Namangan-2019